

ODIL YOQUBOVNING “ADOLAT MANZILI” ROMANINING BADIY XUSUSIYATLARI

Z.T.Tilakova

2-bosqich magistrant, BuxDU

XX asr o’zbek romanchiligi Abdulla Qodiriyning “O’tgan kunlar” hamda “Mehrobdan chayon” kabi asarlari bilan yangi nafasdek jahon adabiyotiga kirib keldi. Bu an'analar Abdulla Qahhor, Oybek, Asqad Muxtor singari ko’plab zabardast romanavislар ijodida bo'y cho'zdi, gulladi hamda rivojlandi. O’zbek romanchiligi o’zgacha mohiyat kasb etgan yana bir nosir borki, uning bu qadriyatlar rivojida o’z o’rni, so’zi hamda uslubi bor. Shaxs-yozuvchi sifatida e’tirof etilgan mazkur ijodkor Odil Yoqubovdir.

Odil Yoqubov XX asrning ikkinchi yarmi o’zbek nasrida inson ma’naviy olamini chuqur tadqiq eta olgani, qahramonlari ruhiyatiga teran nazar sola olgani, shakl va mazmun borasida uyg'unlik hamda hamohanglikga erisha olgan yozuvchi sifatida hali-hanuz adabiyotshunoslar va kitobxonlarning e’tiborini tortib kelmoqada. Muallifning bu qadar yetuk mahorat egasiga aylanishida ko’plab omillarni sanab o’tish mumkin. Bolalik yillarda qatag'on sababli oiladagi mushkul vaziyatlar, keyinchalik ikkinchi Jahon urushi davrida front ortida chekilgan zahmatlar, Uzoq Sharqda ko’rgan-kechirgan jang maydonidagi voqealar, 1950-1960-yillarda mamlakatdagi murakkab iqtisodiy-ijtimoiy holat, qayta qurish, istiqlolga erishilgan dastlabki jarayonda mushkulotlar barchasi Odil Yoqubovni tobladi, nafaqat chinakam inson bo’lib yetishishida, balki haqiqiy xalqning ko’ngliga yo’l topa olgan adibga aylanishida zamin bo’lib xizmat qildi. Adabiyotshunos U.Normatov e’tiroficha, mazkur hayot sinovlari Odil Yoqubovning odamlar qismati, ruhiyatidagi evrilishlarni, millat hamda mamlakat hayotidagi jarayonlarni haqqoniy, mardona, betakror va ta’sirchan tasvirining poydevori sanaladi. Muallifning durdona asarlari sirasiga “Er boshiga ish tushsa”, “Diyonat”, “Oqqushlar, oppoq qushlar”, “Izlayman”, “Ulug’bek xazinasi”, “Ko’hna dunyo”, “Muqaddas”, “Adolat manzili” kabi qissa va romanlarni kiritish mumkin.

Odil Yoqubov ijodida realizm an'analari ustunlik qilganiuning qahramonlari qismatini haqqoniy tasvirlaganida, qahramonlari nutqida ro’yi-rost fikrlarini bayon etganida, davr muammolarini oshkora tahlilga tortganida namoyon bo’ldi. XX asr o’zbek adabiyotida realizm tendensiyalaridan og’ishmay ijod qilgan muallif umrining so’ngiga qadar o’z qadriyatlariga sodiq qolgani asarlarda yorqin bilinib turdi, ijodkor asarlarini boshqa ijod namunalaridan ajratib turuvchi xususiyati ham shunda bo’ldi.

Odil Yoqubovning dastlabki qissasi “Muqaddas” qissasi ko’plab adabiyotshunoslarning e’tirofiga sazovor bo’ldi. Ayniqsa, U. Normatov mazkur asarni “Odil Yoqubov” degan fenomen uchun mualliflik yorlig’i vazifasini o’tadi,

deya qayd etadi. Mazkur qissada ikki yoshning, Muqaddas hamda Sharifjonning yangi hayotostonasida bir umrga tatigulik saboq olgani, pok va samimiy tuyg'ularni asray olishmagani, insoniylik, sadoqat kabi fazilatlar eng oliy hislar ekanini tarannum etiladi. Ushbu qissa yozuvchining ijod yo'lida yo'lchi mayoq bo'lib xizmat qildi, keyingi roman hamda qissalar uchun poydevor bo'lib xizmat qildi.

"Adolat manzili" romani mustaqillik yillarda yozilgan asar bo'lib, "Diyonat", "Oqqushlar, oppoq qushlar" romanlarining mantiqiy davomi hisoblanadi. Muallif ijodining oxirida yozilgan asarlardan biri sifatida, romanda mehnatkash vat anti o'zbek xalqi, uning yaqin o'tmishdagi mashaqqatli hayoti, chuqur dramatizmga yo'grilgan qismati cheksiz ehtirom hamda samimiy muhabbat bilan hikoya qilinadi. Odil Yoqubov shunday jamiyatda dunyoga keldi, yashadi va uning bo'g'iq havosidan nafas oldi, voyaga yetdi, umrguzaronlik qildiki, bevosita har bitta har bir asariga shu hayot tajribasini, ko'rgan-kechirganlarini aks ettirdi.

"Adolat manzili" romanidaadolatsizlikning enf mudhish ko'rinishi bir millat, bir katta davlat ustidan qilinganadolatsizlikni qamrab olgani bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Adabiyotshunos D.Quronov asarda mazmun va shakl mutanosibligi xususida fikr bildirib, shakl mazmundan, yoki mazmun shakldan ustun bo'lmasligi, aksincha, ikkalasi uyg'un bo'lishini ta'kidlaydi. Odil Yoqubov ham "Adolat manzili" romanida davrning ijtimoiy-ma'naviy muammolari, tizginsiz jamiyat munosabatlari, odamalararo tafovut hamda ziddiyatni o'n olti bobdan iborat romanga jo qiladi. Tabiiyki, bu mazmun va shakl o'ta hamohanglik kasb etgannki, kitobxon asar so'ngida butun bir millatning dardini, tashvishu alamli anduhlarini his eta oladi.

"Adolat manzili" romanining syujeti ham e'tiborni tortadi. Bilamizki, syujet asar voqealari rivojida muhim unsur bo'lib, ularni bog'lab turuvchi yagona tizim desak, xato bo'lmaydi. "Adolat manzili" romani syujeti xronikali hisoblanib, *xronikali sujet qahramon taqdirini davriy izchillikda, uning xarakterini rivojlanishda ko`rsata olishi jihatidan ustunlik qiladi. Shu bois ham katta epik asarlarda ko`proq xronikali sujet qo'llaniladi. Sujetning mazkur turi epik ko`lamdorlikni ta'minlashga ham katta imkon yaratadi.* Romanda Suyun Burgutning ayanchli, ammo mardona taqdiri, Veteran Sherbo'ta Norbo'tayevning Vataniga sadoqatli mehnati, Lochin kabi yoshlarning keljakdan umidi singari ahamiyatli voqealar syujet liniyasini tashkil etadi. Muallif unda ba'zida retropeksiyadan foydalanib ortga qaytib, o'tmish voqealarini ham tasvirlaydiki, bu kitobxonga qahramonlar qismatini yanada teranroq his qilish imkonini beradi.

"Adolat manzili" romanida retrospeksiya asosan xatlar yordamida eslatiladi. Asar boshida Bibisora momo Marjonoydan olgan xatlari yordamida kitobxonga o'tmishdagi voqealarni eslatadi, bu har bir qahramonning asardagi hayot yo'llari tutashgan nuqtalar haqida yetarli ma'lumot berib o'tadi. Bibibsora momoning Marjonoyning otasi Mamat mergan bilan oila qurishi, yoshgina bevaning ayanchli yillari, Veteran Sherbo'ta Norbo'tayev bilan umr yo'llarinining kesishuvi,

Marjonoyning ulg'ayishi, Suyun Burgut bilan umr yo'llarinining bog'anishi kabi o'tmish voqealar xatlar, esdaliklar yordamida kitobxonga yetkaziladi.

"Ko'zimning nuri, Momojonim!"

Kecha xatingizni oldim. Ko'zimga surtib o'qidim, bir kuldim, bir yig'ladim. Suyun burgutni aytibsiz. Marhum otangning unaqa jiyani yo'q, undan ovloq yur, ehtiyyot bo'l, debsiz. Qotib-qotib kuldim. Nega etiyot bo'lar ekanman? U qashqir emaski, meni yev qoysa. Agar ishonsangiz.... Men undan emas, u mendan qo'rjadi, momojon! Kurash tushganda hammani yiqitadigan devdek yigir meni ko'rsa domdirab qoladi ... qisqasi, qizingizga ishonavering, uni baloyam urmaydi, momojon!" Roman boshidan muallif vahimali vaziyat hukmron ekanini Marjonoy obrazining onasiga qo'ng'irog'i bilan boshlar ekan, asardagi asosiy personajlarni Bibisora momo obrazining xatlarni o'qishi, eslashi orqali romanga olib kiradi. Yuqoridagi xatda ham ma'lum muddat avval bo'lib o'tgan voqeа retrospeksiya yordamida personaj nutqi orqali eslatiladi, unga ko'ra kitobxon Marjonoy voyaga yetgach, onasi hamda o'gay otasidan ma'lum muddat qishloqda, qarindoshlari bilan birga yashagani, latofatli qizning sevgi sururidan sarmast yillari, Suyun burgut obrazi, uning surati hamda siyрати bat afsil bayoni keltiriladi.

"Adolat manzili" asari asosan muallif nutqi orqali yetkaziladi, ammo romanda qahramonlarning ichki olami tasviri bayon etilgan, teran tasvirlangan lavhalar keltirilganki, unda bevosita har bir personaj ichki nutqi orqali kitobxonga uni o'rtagan muammolarni yetkazadi. Keying faslda aynan ichki monologlarning o'rni va rolini tahlilga tortib, aynan romandagi ahamiyatini misollar yordamida dalillashga harakat qilamiz.

Romanda muallif gohi o'rinnarda voqealarning faol ishtirokchisi sifatida voqealarga aralashadi va o'z munosabatini namoyon etadi. Bunday vaziyatda Odil Yoqubov go'yo muallif ekanini unutib, mazkur voqealarning bevosita guvohi sifatida befarq bo'la olmaydi, aksincha hamdard va hamfikr inson kabi nuqtai nazarini bayon qiladi. Misol tariqasida romanda, Lochin hamda Oltinoy munosabatlari tasvirida yozuvchi o'z personajidagi dinamikadan hayratda qoladi va buni nutqida ifodalaydi: "Yopiray, bu o'sha Lochin yaqin-yaqinlargacha nazariga ilmay, ichida uning sevgisidan goh kulib yurgan uyatchangina, tortinchoqqina Oltinoymi bu yo ko'pni ko'rgan, ko'pni bilgan dono qizmi?" Ko'rindaniki, adib o'z personajidagi o'zgarishdan hayratda va bu hayratini so'zda ifodalayapti. Aytish joizki, muallifning tili sodda va ravon, fikrlar bayonida murakkab hamda g'oyatda qiyin jumlalarni uchratmaymiz. Tasvirda aniqlikga erishish maqsadida Odil Yoqubov tushunarli, izoh talab qilmaydigan so'z va jumlalardan foydalanadiki, shu jihat ham asarning xalqchilligi va haqqoniyligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adabiy turlar va janrlar (tarixi va nazariyasiga oid). Birinchi jild. (1991) Toshkent: Fan.
2. GO Khayriddinovna (2021) Description of social problems in "Cannery Row" by John Steinbeck - ACADEMICIA: An International Multidisciplinary
3. Karimov N. (2008). XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. Toshkent: O'zbekiston.
4. Karimov H. (2010) adabiyot nazariyasining ilmiy asoslari. Toshkent: Yangi nashr.
5. Murodov G. (2018). Tarixiy romanning mushtaraklik va o'ziga xosliklar uyg'unligi muammolari. Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. avtoref. Toshkent.
6. Nosirov A. (2018). Odil Yoqubov romanlari poetikasi. Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. avtoref. Samarqand.
7. Solijonov Y. (2013) Ko'zgudagi hayot. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
8. Yoqubov I. (2011). O'zbek romanining ma'nnaviy-ruhiy asoslari. Sharq yulduzi, № 4, p.109-112.
9. Yoqubov O. (2019). Adolat manzili. – Toshkent: Yangi nashr.
10. Ganieva, O. K., & Aminova, N. B. (2022). JOHN STEINBECK'S "DISCONTENT" OVER THE SOCIAL PROBLEMS. Gospodarka i Innowacje., 23, 146-148.